

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY  
ISHLAR TIZIMINING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Andijan shaharpedagogika kolleji direktori D.Qurbonova**

**ANNOTASIYA**

Ushbu maqola kollej o'quvchilarining kamolotida muhim omil hisoblangan tarbiya jarayoning mazmun, mohiyati va ushbu jarayonda maktab, oila uzviyligi, ayniqsa o'qituvchi mahoratining ayrim qonuniyatlari ilmiy - pedagogik jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi, ma'naviy kamoloti, professional ta'lim muassasalari, zamonaviy ta'lim modeli, ma'naviy-axloqiy kompetensiya

**АННОТАЦИЯ**

В статье научно-педагогически обоснованы содержание и сущность образовательного процесса, который считается важным фактором развития студенческой молодежи, и единство школы и семьи в этом процессе, особенности некоторых закономерностей педагогического мастерства.

**Ключевые слова:** система духовно-воспитательной работы, духовная зрелость, профессиональные образовательные учреждения, современная образовательная модель, духовно-нравственная компетентность.

**ANNOTATION**

The article scientifically and pedagogically substantiates the content and essence of the educational process, which is considered an important factor in the development of student youth, and the unity of the school and the family in this process, the features of some patterns of pedagogical skill.

**Keywords:** system of spiritual and educational work, spiritual maturity, professional educational institutions, modern educational model, spiritual and moral competence.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va

tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda yovuz, birda madaniy ko‘rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga undaydi. Ma’lumiki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 25-dekabrda O‘zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi da hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, degan so‘zlari mohiyatidagi uyg‘onish nafasi Hazrat Navoiy da’vatlariga mohiyatan uyg‘un bo‘lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azm-u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma’naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi. Demak, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo‘lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi. Negaki ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo‘lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo‘llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g‘aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo‘lida bedor bo‘lishga, bu olamni obod qilishga, go‘zallikka burkashga chorlagan. Endilikda, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo‘lga qo‘yish, bu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda

xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taradi. Barkamol insonga xos eng muhim jihat – bu shaxsning ma'naviy kamoloti bo'lib, u ma'naviy kamolot milliy, tarixiy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida olib boriluvchi izchil tarbiya mahsulidir. Shu sababli mustaqil O'zbekistonda barkamol shaxs tarbiyasi ustuvor masalalardan biri sifatida amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning jahon siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishi oliy ta'lim tizimi oldiga jahon talablariga javob bera oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda.

Yuksak ma'naviyatli mutaxassis tayyorlash esa ta'lim tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, pedagogika fani imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish, ta'lim tizimini, o'quv dasturlarini mustaqillikni mustahkamlash uchun mas'uliyatli, vatanparvar, millatparvar, millatlararo totuvlik, halol, tashabbuskor va milliy g'oyamizga sadoqat kabi fazilatlarni o'zida mujassam qilgan ziyoli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan holda tuzishni talab etadi.

Insoniyatning, millatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsafiy, axloqiy, huquqiy, estetik, badiiy g'oya va ideallar yig'indisi, xalq ma'naviy merosi, qo'shiqlari, maqollari, hikmatli so'zlari, termalari, laparlari, matallari, she'riyati millatning ma'naviy qadriyatlaridir. Oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi ma'naviy qadriyatlar asosida talaba shaxsining axloqiy-ruhiy mohiyatini shakllantiradi. Ma'nau, axloqan, ruhan barkamol inson o'z Vatani, xalqi oldidagi burch va mas'uliyatini teran anglab yetadi, xalqi uchun, uning moddiy va ma'naviy madaniyati kelajagi uchun qayg'uradi.

Darhaqiqat, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurilayotgan bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining poydevori hisoblangan barkamol avlodda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi ma'naviy-ahloqiy negizlarni shakllantirish muhim o'rin tutadi. .

Yuksak texnologiyalar global rivojlanayotgan XXI asrda Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek intellektual boylik yetakchilik qiladi. Shuning uchun bugunning komil insonlariga Yangi O'zbekiston qurayotgan yoshlar bir tomondan yuksak rivojlangan

davlatlar bilan hamohang ekanligi, ikkinchi tomondan, ma'naviyat, intellekt ustuvorligi bilan ajralib turadi. Ya'ni farzandlarimizda intellektual rivojlanganlik, zamon talablariga mos tayyorlik, yuksak ma'naviyat, axloqiy sog'lomlik, jismoniy chiniqqanlik, mustaqillik ideallariga cheksiz sadoqat, Vatani va xalqiga sodiq, milliy o'zligimizga yot g'oya, qarashlarga murosasizlikni mujassam etish taqozo etilmoqda.

Jahon miqyosida ma'lumotlar tezkor yangilanayotgan XXI asrda kasb hunar ta'limi o'quvchilarining tarbiyasida milliy ma'naviyatga asoslanish, xalqimizning ko'p asrlar davomida ardoqlab kelgan milliy-ahloqiy qadriyatlarni pedagogik jarayonning predmetiga aylantirish g'oyat murakkab, biroq muhimdir. Binobarin, xalq tarbiyaviy tajribasida orttirilgan an'analarni ilmiy talqin etish, ulardan 20000 dan ortiq talaba yoshlarimiz mafkuraviy va ma'naviy kamolot sari safarbar qilishda foydalanish milliy istiqbol va istiqbol talabidir. Shu sababli professional ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining ijtimoiy pedagogik diagnostik asoslarini ishlab chinish dolzarb zaruratga aylandi.

Bu esa O'zbekiston professional ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining mustaqillik yillari davomida to'plagan tajribasini ilmiy talqin qilish va uni takomillashtirishning nazariy, uslubiy, amaliy diagnostik yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Muassasada ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ijtimoiy-siyosiy, milliy istiqbol mafkurasining bosh g'oyasini ta'minlashdagi vazifalari ijtimoiy pedagogik mexanizm bilan ta'minlash;

- professional ta'lim muassasalari tarbiyaviy ishlar tizimi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi sifatida nazariy pedagogik asoslash;
- professional ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ilg'or va ommaviy tajribasini umumlashtiruvchi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqib, joriy qilish;
- professional ta'lim muassasalarining ma'naviyat va ma'rifat bo'limlari faoliyati tizimini tashkiliy pedagogik o'rganib, takomillashtirish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida professional ta'lim muassasalari rahbariyati, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlari orasidagi pedagogik hamkorlikni

izchil, ilmiy asosda ta'minlash;

– talabalar ma'naviyatini ilmiy o'rganishni doimiy pedagogik monitoring asosiga qurish;

– ma'naviy-ma'rifiy ishlar maqsaddan natijaga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni sifatida texnologik asosga qurish, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligining yuqori bo'lishini ko'satdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yoshlarda aynan ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy kategoriyalar, normalar, qadriyatlar tizimi haqida bilim hosil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikmalari takomillashtirilishi muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda o'qitiladigan tarbiyaga oid fanlarda ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari (suhbat, bahs-munozara, muammoli ta'lim)dan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Ta'lim muassasalari yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy sifatlarning rivojlanganligini baholash namunali, yaxshi, qoniqarli mezonlar orqali aniqlab boriladi. Past ko'rsatkich aniqlansa, korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi, buning uchun yoshlar bilan individual-psixologik ishlar olib boriladi hamda natijaga erishish uchun harakat qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalari yoshlari ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modelini yaratishga imkon beradi. Bunday zamonaviy ta'lim modeli yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Chunki yoshlarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogning o'zida kompetentlilik rivojlangan bo'lishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda

- barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907 qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>.
6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta’lim, fan va innovatsiya. 2019, – №1. – B. 77-81.
7. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 67 b.
8. Azimova N.E. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitish misolida). Ped. fan. fal. dokt. (PhD). ... dis. – Toshkent, 2012. – 178 b.
9. Ismoilova Z.Q. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). Ped. fan. dokt. ...dis. avtoref. – Toshkent: O‘zPFITI, 2006. – 46 b.
10. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 1993. – 364 b.
11. Olimov Sh.Sh. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ...dis. – Buxoro, 2012. – 286 b.
12. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.
13. Karabayevna I. Z., Riskulova K., Ubaydullayevich A. M., Turaevna I. Y., & Ravshanovna P. N. (2020). The role of electronic pedagogical tools in higher education. Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Sciences Pvt. Ltd. // <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.80>
14. Ismailova Z. & Ergashev B. (2019). New information and communication technologies in education system. In E3S Web of Conferences (Vol.135). EDP Sciences // <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>
15. Karabayevna Z. & Raximovich B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students’ professional competences. International Journal

- of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 6898–6902 // <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2996.109119>
16. Karabayevna Z., Musurmanova A. & Xamroyevich R. (2019). Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 6903–6906 // <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2997.109119>
17. Ismailova Z. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Chinor fayzi baland, 2021. – 334 bet.